
Yangi o'quv yili boshlandi. Maktablarimizda nima gaplar?

Yangi 2023-2024 o'quv yili boshlandi va barcha umumta'lim maktablarda dars jarayonlari belgilangan tartib va qoidalarga asosan olib borilmoqda. Biroq, ba'zi ta'lim dargohlarida yillar osha to'planib qolgan muammo va kamchiliklar ham borki, ularni bartaraf etish har birimizdan yuksak mas'uliyatni talab etadi. Pandigon mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan 14-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida dars jarayonlari davom etmoqda. Bugun ushbu maktabda bo'lgan tuman hokimi Bahodir Xoliqov va tuman prokurori Rashidbek Mehmonovlar dars jarayonlari bilan tanishishdi, o'quvchilar bilan suhbatlashishdi. Tuman hokimi o'quvchilar bilan savol-javob qildi, o'quvchilarning bilim darajasi o'rganildi, ularning nimalarga qiziqishlariga qiziqib, faqat bilim olish va ilm yo'lida astoydil intilish lozimligini qayd etdi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati

2023-09-09 17:41:40